

“TURKIY XALQLAR FOLKLORINING OIYOSIY O’RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

XALQ MAQOLLARDA QULDORLIK DAVRI BADIY TAFAKKURINING IFODASI

Yo‘ldosh RAHMATOV

Filologiya fanlari doktori (DSc)

O‘zR FA O‘zbek tili adabiyoti va folklori inistituti,

“Alfraganus university” nodavlat oliy ta’lim tashkiloti

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15290664>

Annotatsiya. Mazkur maqolada xalq maqollaridagi badiiy tafakkurning ijtimoiy formatsiyalar kesimidagi ifodasi va obrazlar talqini xususida so‘z boradi. Ijtimoiy formatsialarning xalq badiiy tafakkuridagi ifodasi kishilik jamiyatida ong shakillanganidanoq paydo bo‘gan. Xususan, xalq maqollari folklorning eng qadimiy janri o‘laroq ijtimoiy formatsiyalardagi xalq badiiy tafakkurini rivojlanib borishini aniqlashda katta imkoniyat beradi. Maqolada quldorlik tuzumi badiiy tafakkuri va obrazlar tizimi haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: paremiologik birlik, maqol, lingvomadaniy birlik, ijtimoiy tuzum, epik tafakkur, evolyutsiya, tabiiy hodisa, obraz, quldorlik, qul.

Аннотация. В данной статье рассматривается выражение художественного мышления в народных пословицах в контексте социальных формаций и интерпретация образов. Выражение социальных формаций в народном художественном мышлении возникло с формированием сознания в человеческом обществе. В частности, народные пословицы как самый древний жанр фольклора дают большие возможности для определения развития народного художественного мышления в социальных формациях. В статье также обсуждаются художественное мышление и система образов в условиях рабовладельческого строя.

Ключевые слова: паремнологическая единица, пословица, лингвокультурная единица, социальное устройство, этическое мышление, эволюция, природное явление, образ, рабовладение, раб.

Annotation. This article discusses the expression of artistic thinking in folk proverbs in the context of social formations and the interpretation of images. The expression of social formations in folk artistic thinking appeared with the formation of consciousness in human society. In particular, folk proverbs, as the oldest genre of folklore, provide great opportunities for identifying the development of folk artistic thinking within social formations. The article also discusses artistic thinking and the system of images under the slaveholding system.

Keywords: paremiological unit, proverb, linguocultural unit, social system, epic thinking, evolution, natural phenomenon, image, slavery, slave.

Xalq tafakkuri bevosita olamni bilish, tabiatni kuzatish, ijtimoiy hayotni anglash va uni baholashda namoyon bo‘ladi. Har bir shaxsning tabiiy va ijtimoiy hodisalarga o‘z munosabati mavjud bo‘lib, shu munosabatlar yig‘indisi umumlashib bir butun millat dunyoqarashi, urf-odati, madaniyati va badiiy tafakkurini namoyon etadi.

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

Millatlar va elatlar mana shu xilma-xilliklar asosida o‘zaro farqlanadi va har bir millatning o‘ziga xosligi shu mezonda o‘lchanadi. Shu bois bugun ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, ilm-fan taraqqiyoti uchun harakat qilayotgan har qanday mamlakatning milliy tafakkur tarixiga alohida e‘tibor qaratishi zaruriyatga aylanmoqda. Ayniqsa masalaga til va tafakkur, til va ruh, badiiy ijod va tafakkur jihatdan yondashuv xalqning milliy idrok tarzi, ruhiyati, dunyoqarashini to‘g‘ri anglashga katta yordam berishi[3.7.], xususan, xalq og‘zaki ijodi fonida milliy tafakkur muammosini o‘rganish jamiyatda ta‘lim-tarbiya, shaxsning ma‘naviy-ruhoniyl kamolotiga doir masalalar yechimiga xizmat qilishi shubhasiz haqiqatdir.

Bilamizki, millat tafakkuri ko‘proq ijod mahsulida namoyon bo‘ladi. Aytish mumkinki, xalqning hunarmandchilik, amaliy san‘at, musiqa va raqs, binokorlik va bunyodkorlikdagi ishlari uning qudrati, darajasi, tafakkurini ochiq aks ettirsa, badiiy ijodi (qo‘shig‘u aytimlar, maqolu matallar, afsona-yu rivoyatlar, ertak-u dostonlar) esa halq qudratini yashirin (poetik qobig‘da) namoyon etadi. Oshkordan ko‘ra yashirinning quvvati yuqori bo‘lganidek, xalq tafakkurini o‘rganishda uning og‘zaki ijodi tengsizdir. Shu bois ham ilmda xalq og‘zaki ijodi tengsiz xazina degan to‘xtam barqaror. Xo‘sh, folklor namunalaridagi xalqning ramziy, yashirin, ta‘bir joiz bo‘lsa, kodlangan dunyoqarashini qanday bilish o‘rganish mumkin. Bunda nimalarga e‘tibor qilmoq kerak?

Avvalo, paremiologik birliklar (ibora, maqol, matal, topishmoq) va ularning yuzaga kelishi, shakl va mazmuniga diqqat qilmoq lozim.

D.Xudoyberganova ta‘kidlaganidek, “Maqollar ham boshqa lingvomadaniy birliklar kabi millat mentaliteti, madaniyati, turmush tarzi, ona tilimizning o‘ziga xosligini o‘zida yorqin aks ettiradi.

Lingvomadaniy belgilarni o‘zida yaqqol ifodalagan umummilliy xarakterdagi madaniy kodlar o‘zbek maqollarida keng qo‘llanilgan. Kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek xalq maqollarida fanda e‘tirof etilgan lingvomadaniy kodlarning deyarli barchasi in‘ikos etgan”[10.21.]. Darhaqiqat, maqollar millat madaniyati, tili va tarixini keng miqyosda ifoda etishi bilan ko‘proq ahamiyatga ega. Maqollar, eng avvalo, xalqning mavjud voqelikka obrazli badiiy tafakkuri orqali yondashishidan yuzaga keladi va ramziy-majoziy fikr orqali tinglovchiga o‘git, nasihat beradi. Yoki mavjud hayotiy hodisaga munosabat bildiradi, qissadan hissani tinglovchi hukmiga qoldiradi. Aytish mumkinki, maqollardagi obraz va obrazlilik xalq tafakkuridan oziqlangan, dunyoqarashi, e‘tiqodidan kelib chiqqan.

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

Maqollar jamiyatning barcha sohasini qamrab olgani bois ulardagi obrazlar tizimi ham murakkab va serqirradir. Maqollarning obrazlar tizimi va tabiati haqida mulohaza bildirganda, folklorning tarixiylik tamoyillaridan kelib chiqish lozim. Boisi o‘zbek xalq maqollarining shakllanishi va taraqqiyoti juda uzoq davrlarga borib taqaladi. Maqollarda xalqning hayotiy tajribalariga asoslangan hukmi aks etar ekan u har bir davrda o‘ziga xos obrazlarda ifodalangan. Shu bois maqollardagi obraz evolyutsiyasini jamiyat o‘z boshidan kechirgan barcha ijtimoiy-iqtisodiy tuzumlar bilan bog‘liq holda o‘rganish maqsadga muvofiqdir.

Maqol ijtimoiy hayot fonida kishilik jamiyatining turmush tarzidan chiqarilgan falsafiy-axloqiy xulosalar sifatida individual shaxsga qaratilgan bo‘ladi, shu bois maqollarning g‘oyasi ham og‘zaki va yozma adabiyotdagi singari inson va insonshunoslikdan o‘zga narsa emas. Har qanday maqol mazmunida gumanizm mavjud bo‘lib, shu g‘oya ifodachisi sifatida obraz hamda obrazlilik yuzaga keladi. Bu xususda folklorshunos F.Bafoyev shunday deydi: “Xalq o‘zining uzoq yillar davomidagi kuzatishlari natijasini muayyan obrazlarga singdirib ifodalagan. Ammo shuni ham alohida ta’kidlab o‘tish kerakki, xalq maqollaridagi obrazlar badiiy adabiyotdagi obrazlardan tubdan farq qiladi. Bu farqni ularning bir turdagi narsa, voqea-hodisa va shaxslarni umumlashtirib kelishi bilan izohlash mumkin”[2.98.]. Haqiqatda, maqollardagi obraz badiiy asar tarkibidagi obrazdan keskin farq qiladi. Badiiy obrazda hol, kechinma, xarakter bo‘lgani holda syujet davomida u o‘zligini namoyon etadi va obrazning turlari shunga ko‘ra farqlana boradi. Badiiy obraz hayotiy shaxsning umumlashma tipi bo‘lib, syujetdagi harakatiga qarab ijobiy, salbiy xarakterga ega bo‘ladi. Eng asosiysi, obraz hayotiy bo‘lishi shart, ya’ni Aristotel ta’biricha, ijodkor xarakterida jahli tezlik, beg‘amlilik va shu kabi kamchiliklari bo‘lgan odamlarni tasvirlar ekan, ularni qanday bo‘lsa shunday (jahldor, beg‘am qilib) va ayni chog‘da go‘zal odam qilib ko‘rsatishi[1.32.] lozim. Maqollardagi obraz badiiy obrazdan farqli umumlashma xarakterga ega bo‘lib, ular ma’lum bir toifa, xarakter, xos kishilar, kasb egalari yoshi va qarindoshligi asosida shakllanadi. Maqollardagi obraz faqat bir yoqlama xarakterga ega bo‘lib, dinamika mavjud emas, ya’ni maqol obrazi qat’iy ijobiy yoki salbiy xarakterli bo‘ladi. Ko‘p hollarda ularning xakteri o‘z ziddi bo‘lgan ikkinchi toifa kishisi orqali ochiqlanadi. “Yaxshidan bog‘ qoladi, yomondan dog‘ qoladi”. Mazkur maqoldagi “yaxshi” va “yomon” tipik obrazlar bo‘lib jamiyatdagi kishilarni guruhlab ifodalagan. Bu haqida professor B.Sarimsoqov shunday yozadi: “Maqollardagi obrazlilik g‘oyatda o‘ziga xosdir. Ularda aks etgan shaxs, eng avvalo, konkret obraz sifatida ko‘rinsa ham, biroq u

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

o‘ziga o‘xshash shaxslarga xos tipik xususiyatlarning barchasini jamlagan holda aks ettiradi”[7.41.].

Maqollardagi obrazlar ham turli davr mahsuli bo‘lib, u ibtidoiy tuzumdan tortib, quldorlik, feodalizm, sotsializm va bugungi istiqloq davrigacha bo‘lgan voqelik asosida yuzaga kelgan. Maqollardagi obrazlarga qarab, maqolning qaysi davr badiiy tafakkurining hosilasi ekanligini aniqlash mumkin. Insoniyat tarixi odamzodning yaratilishi bilan boshlangan bo‘lsa, tafakkuri ham ayni yaratilish bilan uyg‘ondi[11.97.]. Olam va odam munosabati asosida bu tafakkur charxlanib, o‘zgarib, torayib, kengayib, yangilanib boraverdi. Buni fasohat va balog‘atda tengsiz Qur‘oni karim odamzodning uzoq o‘tmishi haqidagi xabarlar bilan ma‘nan dalillasa, bugungi ilm-fan arxeologik topilmalar: qoya toshlarda chizilgan suratlar, tosh, mis, bronza, sopol buyumlardagi bitiklar moddiy jihatdan asoslaydi.

Har qanday badiiy va amaliy san‘at asari avvalo inson tafakkurida shakllanadi. Uni biror buyum, narsaga ko‘chirish oldidan odam tafakkuridagi voqelikni tasavvuriga keltiradi va uni qo‘li yordamida amalga oshiradi. Yaratgan chizma yoxud, biror idishda o‘yib ishlangan suratlar uning badiiy tafakkuri hosilasi o‘laroq, olam haqidagi tasavvuriy xulosalari sanaladi. Fan ibtidoiy odam ilk tassavvurlarda borliq va olamni g‘ayrioddiy kuchlar boshqaradi deb bilishi va shu kuchlarni ko‘z oldiga keltirishidan mifologik obrazlar yuzaga kelganini aytadi.

Insoniyat tarixining eng og‘riqli davri bu ijtimoiy quldorlik davri sanaladi. Bir tomondan bu davrda insoniyat sinfiy jamiyatni shakllantirdi va mamlakatlar, xalqlar yuzaga keldi. Haqiqiy tarix ham shu davrdan boshlandi, desak yanglish bo‘lmaydi. B.Soatovning ta‘kidlashicha: “Insoniyat tarixida jamiyat paydo bo‘lishining o‘zi hayratlanarli hodisadir. Chunki insoniyatning o‘z hayotini tarix qilib qoldirishining asosiy omili ham uning jamiyat shaklida yashashidan boshlanadi. Paremiologiya ham faqat jamiyat ichida yaratiladi, yashaydi va yo‘qoladi”[8.26.]. To‘g‘ri, maqollarning ko‘pchiligida formatsiyalar ta‘siri, sinfiy munosabat kuzatiladi, biroq bu bizga maqollarni sinfiylik hosilasi deb hukm chiqarishga asos bo‘la olmaydi. Maqollar, avvalo, olam va odamni anglash jamiyat va tabiatni kuzatish, hayotiy tajriba, turmush sabog‘i xulosalaridan yuzaga keladigan xalq o‘g‘itlari. Sinfiylik faqat uning birgina tarmog‘i xolos. Shuning uchun “...o‘zbek xalq maqollarini yaratilish vaqtiga ko‘ra tasnif etish faqat quldorlik davridan boshlab amalga oshirish mumkin”[8.26.] degan qarash o‘zini oqlamaydi. Chunki maqollar xalq tafakkuri maxsuli sifatida quldorlik tuzumidan ancha oldin yaratila boshlangan. Shunga qaramasdan jamiyatdagi rivojlanish va evolyutsiya xalq tafakkurining o‘sishi dunyoqarashining kengayishiga

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

ham olib kelgan. Shu bois har bir formatsiya kishilarining o‘z qarashi, badiiy tafakkuri mavjud bo‘ladi.

Markaziy Osiyo hududida olib borilgan arxeologik qazilmalar shuni ko‘rsatadiki, hozirgi O‘zbekiston, Tojikiston, Qirg‘iziston, Turkmaniston respublikasi hududlarida quldorlik tuzumi miloddan oldingi VI-IV shakllanib, eramizning III-IV asrlarigacha davom etgan. Biroq Markaziy Osiyodagi quldorlik o‘z xarakteri bilan qadimgi Rimdagi quldorlik tuzumidan keskin farq qiladi. Bu hududdagi quldorlik faqat ukklad sifatidagina mavjud bo‘lgan[9.62.].

Maqollarni tarixiy-folkloriy jihatdan o‘rganishda ijtimoiy formatsiyalar asosida davrlashtirish g‘oyasini o‘zbek folklorshunosligida ilk bor Hodi Zarifov ilgari surgan edi[12.384.]. Keyinchalik maqollar tadqiqini olib borgan T.Mirzayev, B.Sarimsoqovlar ham maqollarning davriy evolyutsiyasida ijtimoiy tuzumlarning o‘rni alohida ekanini ta’kidlab: “...xalq maqollarida muayyan xalq boshidan kechirgan turli sotsial-iqtisodiy formatsiyalar o‘z aksini topgan. Mana shu jihatdan o‘zbek xalq maqollari uch guruhga bo‘linadi: a) quldorlik tuzumi davrida yaratilgan maqollar; b) feodalizm davrida yaratilgan maqollar; s) sotsialistik tuzum sharoitida yaratilgan maqollar”[4.96.] kabi davrlarga ajratishadi. Maqollarning folkloriy-tarixiy jarayonini tasniflashda B.Soatov ham shu yo‘ldan borgan[8.26.]. Biz folkloriy-tarixiy jarayonda ijtimoiy formatsiyalarning xalq badiiy tafakkuriga ta’siri va xalq tafakkurining davriy evolyutsiyasiga e’tibor qaratamiz.

Quldorlik tuzumi kishilik jamiyatiga sinfiylik va tabaqalanishni joriy etdi. Natijada xalq badiiy tafakkurida shu davr ta’siri o‘laroq “qul”, “quldor” obrazi paydo bo‘ldi. Bir paytlar bir sotsial turmushga ega inson ikkita sinfga ajraldi. Ibtidoiy hayot fonida yuzaga kelgan yaxshilik va yomonlikni o‘zida umumlashtirgan mifik obrazlar ziddiyati ixchamlashib “qul” va “quldor” obrazlarida qarama-qarshilik qutblarini hosil qildi. Shunga ko‘ra har ikkala sinf kishilari o‘zlarining hayotiy qarashlari va sotsial tafakkuriga ega bo‘ldiki, buning oqibati o‘laroq og‘zaki ijodda ikki yo‘nalishdagi ijod namunalari paydo bo‘ldi. 1) Yuqori tabaqaga xos kishilar folklori. 2) Quyi tabaqaga xos kishilar folklori. Sinfiy qarama-qarshilik nafaqat kishilarning turmush tarzi, balki ongu tafakkurida ham o‘z ta’sirini o‘tkazdi. Jumladan, tobe doira qullik taqdiriga, hukmron doira vakillari quldorlik – boshqaruv amaliga ishondi va har biri o‘ziga mos hayotiy qonuniyatlar yaratdi. Bu esa o‘z navbatida og‘zaki ijodda ham, yozma adabiyotda ham aks etdi. Xalq og‘zaki ijodida shu davr badiiy tafakkuriga xos ko‘plab ertaklar, afsonalar, rivoyatlar, naqlar paydo bo‘ldi.

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O'RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

Insoniyat tarixida qul va quldorlik tushunchasi juda qadimiy bo'lib uning ildizlari Nuh alayhissalom bilan bog'liq rivoyatlarga borib taqaladi. “Bibliyada aytilishicha, kunlardan bir kun Nuh uyg'onib, o'g'illaridan biri Xom uni yalang'och holda ko'rganligini bilib qoladi. Nuh quloqsiz o'g'lini, Xanaanning barcha avlodlarini, Xomning o'g'lini quyidagi so'zlar bilan la'natlaydi: “Qullarning ham quli bo'lsin akalariga!” (Ibtido, 9:25)”[14.]. Qullik va uning kelib chiqishi haqida izlanish olib borgan olimlar Bibliyada, ya'ni Tavrotda ham, Injilda ham qullik ma'qullanishini, faqat Qur'on va Hadisda bunday qarashlar bo'lmay, qulni ozod etish haqidagi hukmlar mavjudligini e'tirof etishgan. Darhaqiqat, quldorlik Islom dinidan ancha oldin shakllangan bo'lib quldorlikka oid maqollarning shakllanishiga qadimiy ilohiy kitoblarning ham ta'sirini kuzatish mumkin. Chunonchi, quldorlik tuzumini aks ettiruvchi ko'plab xalq maqollarida qullik taqdiriga ko'nish va xo'jasiga itoat etish g'oyalari shu kitoblar ta'sirida yuzaga kelganini ko'rish mumkin. “Ilohiy kitoblardagi yetmishta hikoyaning ayrimlarida qullikni to'g'ridan-to'g'ri qo'llab-quvvatlash haqida gapiriladi. Ular qullarga o'z taqdirini qabul qilishini aytgan va quldorlarga qullarga nisbatan marhamatli bo'lishni aytgan. Timofeyning birinchi kitobi qullarni o'z taqdirini qabul qilish va xo'jalariga bo'ysunishga o'rgatadi, chunki “Iso Masih” shunday vasiyat qilgan. O'tgan asrning oxirlarigacha ko'pchilik nasroniylik tadqiqotchilari va ilohiyot mutaxassislari Bibliya qullikni ma'qullagan deb ishonib kelgan”[14.] Shu sabab quldorlar bunday qarashlarga qonun sifatida qarab, aksar maqollarga shu g'oyalarni singdirishga harakat qilgan. Binobarin, “Qulning quyisi bo'lmas”(2.292) maqolida qulning jamiyatda o'rni yo'qligi va ularning katta-kichigiga birdek munosabatda bo'lish kerakligini ifodalaydi. Bu maqol aynan quldorlik davri qarashlarini ifoda etsa ham bu kunga qadar qo'llanib kelinadi. Maqol, hozirda majoziy ma'no ifodalab, yuqori doiradagilarning o'ziga munosib ko'rmagan kishilarga nisbatan kinoya tarzida ishlatishini bildiradi. Biroq, maqol quldor ongida qulni buyum sifatida ko'rish ularga shafqat va mehr ko'rsatish mumkin emasligini ifodalashda xizmat qilgan.

Qul ham aslida inson uning ham ongi, tafakkuri bo'lib, quldorning eng qo'rqadigan tomoni ham shudan bo'lgan. Chunki qul aqlli bo'lsa, itoatsizlik yuzaga keladi. Itoatsizlik qul egasiga katta ziyon keltiradi. Shu bois qullar shu qadar bosim ostida saqlanganki, hatto ularning o'y-xayollarigacha qullikka mahkum etishga urinilgan. “Qulning aqli choshkadan keyin kelar”(2.291) maqoli xuddi shu aqida asosida dunyoga kelgan. Quldor qulning ham aqli borligi, qul aqli ham insoniy ekanligini tan olgan holda undan ehtiyot bo'lgan, va qul aqlini kamsitishga harakat

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING QIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

qilgan. Maqol hozirgi kunda ham qo‘llanib, kinoyaviy xarakter kasb etadi. Ya’ni maqol ma’lum korxonada, tashkilot xodimlariga nisbatan xo‘jayinlik qiluvchi kishilar tomonidan qo‘llanib, xodimlarga berilgan topshiriq vaqtida bajarilmagan va ish natijasi so‘ralganda turli bahona ko‘rsatilganida qo‘llanadi. Maqoldagi qadimiy kamsitish ma’nosi hali ham saqlanib qolgan.

Maqollarda quldor obrazi qo‘llanmasa-da uning xarakteri, qullar haqida aytilgan maqollardan anglashilib turadi. U zolim, beshafqat va o‘ta takabbur. “Qul yursa, ensasidan belgili” maqoli ham bevosita quldor tomonidan yaratilgan bo‘lib, maqolda qulning tashqi ko‘rinishi orqali xo‘jayinining xarakteri ko‘rinib turadi. Quldor qulni doimiy ravishda ta’qib etadi va uning har bir harakatini zimdan kuzatadiki, nogoh qul bosh ko‘tarmasin. Qul hech qachon o‘z hayotidan mamnun bo‘lmaydi. Bu uning yuz ifodasi, qarashlaridan ko‘rinib turadi. Agar qulning nafrati kuchayib ketsa, u isyonga aylanadi. Shu bois quldor hamisha undan xavotirda va ogoh turishi lozim. Maqolda yana o‘sha kamsitish ma’nosi ustuvor bo‘lib, hozirda ko‘chma ma’no uchun xizmat qiladi. Yoki “Qul-dushman, it-bo‘ri” maqolining zamirida ham quldorning qul isyonidan xavotiri ko‘rinib turadi. Mazkur maqol ham quldorlik tuzumi davrida yaratilgan bo‘lib, “Devonu lug‘ati-t-turk” asariga kiritilgan va olim Mahmud Koshg‘ariy tilidan izohlangan. Maqol devonda shunday berilgan: “*Qul jag‘i, it böpi*” Ma’nosi. ”Qul - yov, u qo‘lidan kelsa, egasining molidan olib, fursat topib qochishning payiga tushadi. It ham xonadon uchun bo‘ridir. Chunki u yeydigan narsa topsa, undan o‘zini tiya olmaydi. Bu maqol qulning xo‘jayiniga kam vafo qilishini bildirish uchun aytilgan”[5.138.]. Ko‘rinadiki, maqol XI asr kishisining tafakkurida qulning egasiga vafosizligi itga qiyosan ifoda etiladi. Biroq maqolning mazmuniga yaxshi e’tibor qilinsa, uning o‘zi haqiqatni oshkor etadi. Ya’ni, “qul – yov”, darhaqiqat, aslida qul qanday paydo bo‘ldi? Bir paytlar ozod bo‘lgan, urush va bosqinlar tufayli asirga tushib, qulga aylantirilgan dushman kishisi, u majburan haq-huquqidan ajratilgan, og‘ir mehnatga solingan odam. Shu bois qul o‘z erkidan mahrum qilgan quldorga hech qachon do‘st bo‘lmaydi. U payt poylab, xo‘jasini o‘ldirib bo‘lsa ham erkka chiqishga intiladi. Bunga tarixdan misollar ko‘p[13.254.]. Maqolning ikkinchi qismi itning bo‘riga mengzalishi bo‘lib, it ham odamga vafodor ko‘ringani bilan asl kelib chiqishi bo‘riga borib taqalishi va nafs oldida u ham vahshiyga aylanishi, kun kelib u ham egasiga pand berishi uqtiriladi. Maqol davriy evolyutsiya natijasida mazmunan kengaygan va o‘ziga yaqin “Bo‘rilar itlarga do‘st bo‘lsa, odamning sho‘ri”, “Ishkambadan go‘sh t bo‘lmas, begonadan do‘st bo‘lmas” kabi variantlarni paydo qilgan. Zero, “Maqollardagi mazmuniy qamrovning kengligi

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

davrlar o‘tishi bilan har bir maqol tabiatida, xususan, uning semantik tabiatida hayratomuz ko‘chishlar yuz berishiga imkon beradi. Mana shunday holat ayrim maqollarni bir necha mavzu doirasida qo‘llashga yo‘l ochib beradi”[6.19.].

O‘zbek xalq maqollari sirasidagi “Qul qutursa quduqqa tuflar” maqoli bevosita quldorni doimiy qutquga solib kelgan isyonga nisbatan yuzaga kelgan. Bu maqolning yuzaga kelishida qullarning sabr-toqati tugab quldorlarga qarshi ko‘targan qo‘zg‘alonlari sabab bo‘lgan bo‘lishi mumkin. Bu haqda B. Soatov shunday deydi: “Og‘ir jabr-zulmdan sabr-qanoati to‘lgan qullar ba‘zan g‘alayon ko‘tarsalar, ba‘zan ularning ayrimlari jamoa quduqlariga tupurish orqali isyon ko‘targanlar. Qul tupurgan quduq esa jamoa uchun harom hisoblanib, quldorlar yo boshqa quduq qazdirishga, yoki boshqa joyga ko‘chib ketishga majbur bo‘lgan. Quldagi ana shu isyon “qulning quturishi” deb yuritilgan”. To‘g‘ri, suv barcha xalqlar uchun azaldan muqaddas sanalib, uni ifloslash, isrof qilish og‘ir gunoh sanalgan. Biroq maqolda qo‘llangan “qulning quduqqa tupurishi” tarixiy asosga ega emas. Bu badiiy tafakkur hosilasi bo‘lib, majoziy ma‘noda qo‘llangan. Qulning noshukurliigi, taqdiriga ko‘nmay xojasiga vafosizligi ma‘nosini ifodalagan. Quduq suvini ifloslash qadimdan ta‘qiqlangan bo‘lib, odamlar ongigi bu aqida qat‘iy qonun sifatida singdirilgan. Shu bois xalq orasida shunga o‘xshash maqollarni ko‘plab uchratish mumkin. “Suv ichadigan qudug‘ingga tupurma”(2.39), “Suvga tupurgan – koski, quduqqa tupurgan kofir”(2.41), maqolida ham noshukurlik qilgan qulning gunohkor, osiyga aylanishi uqtirilgan.

O‘z navbatida qul ham mushohada yuritib, u ham o‘z hayotiga oid tajribalaridan maqollar yaratganki, ulardan qulning tafakkur olamini anglash mumkin bo‘ladi. Jumladan, “Qul o‘lmas, rizqi kamaymas”(2.291) maqoli qulning o‘z hayoti, taqdiri haqida qarashlari asosida yuzaga kelgan, deyish mumkin. Bu xulosa taqdirni Yaratgan tomonidan berilgani, rizq ham bandadan emas Oллоhdan yetishi, shu bois unga rozilik, itoatda bo‘lishni ifodalaydi. “Qulga qochmoq bir armon”(2.292) maqoli ham bandi qulning ozodlikka bo‘lgan havasi asosida shakllangan.

Xullas, quldorlik tuzumida davlatchilik shakllanishi bilan, sinfiylik ham yuzaga keldi. Bu davrda yashagan har ikkala sinf vakillarining olam va odam haqidagi qarashlari mavjud bo‘lib, shu dunyoqarash asosida quldorlik tuzumi davri folklori va yozma adabiyoti shakllandi. Mavjud og‘zaki va yozma adabiy manbalardan quldorlik davri kishisining ruhiyati, ijtimoiy jamiyatga munosabati va badiiy tafakkurini o‘rganish mumkin. Quldorlik davrida yaratilgan maqollar bugungi kunda ham qo‘llanib keladi. Biroq maqol eski mazmunini o‘zgartirgan holda evolyutsiya ta‘siri

“TURKIY XALQLAR FOLKLORINING OIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

o‘laroq majoziy ma’no kasb etgani va bunday maqollarda qul obrazi erksiz, nochor va tobe kishilar ma’nosini anglatishi kuzatiladi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, maqollar xalq badiiy tafakkurining eng ixcham va eng mukammal ifoda shaklidir. Unda xalq hayotida ro‘y berayotgan va xalq hayotida o‘chmas iz qoldirgan tarixiy voqealarga adolatli va haqqoniy hukm ifodalangan. Maqollar evolyutsiyasi orqali xalqning ijtimoiy ongi va badiiy tafakkuri tadrijini kuzatish mumkin bo‘ladi. Tarixiy-folkloriy jarayonda xalq badiiy tafakkuri va obrazlar takomili orqali xalqning turmush tarzi va iqtisodiy-madaniy hayotining rivojlanib borishini baholash va xulosalar qilish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Аристотель. Поэтика. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1980.
2. Бафоев Ф. Ўзбек ва немис халқ мақолларининг қиёсий-типологик тадқиқи: Филол. фан. б-ча фалсафа д-ри (PhD)... дисс. – Тошкент, 2021.
3. Зикриллаев Ғ. Тил ва руҳ. – Тошкент: Фан, 2015. – Б. 24; Худойберганова Д. Тил, тафаккур, маданият. – Тошкент: Nodirabegin, 2020.
4. Имомов К., Мирзаев Т., Саримсоқов Б., Сафаров О. Ўзбек халқ оғзаки поэтик ижоди. – Тошкент: Ўқитувчи, 1990.
5. Кошғарий М. Девону луғати-т-турк. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ, 2017.
6. Мирзаев Т. Саримсоқов Б. Ўзбек халқ мақоллари ва унинг ушбу наشري тўғрисида / Ўзбек халқ мақоллари. I том. – Тошкент: Фан, 1987.
7. Саримсоқов Б. Халқ тафаккурининг олмоқ қатралари / Ўзбек халқ мақоллари. – Тошкент, 1981.
8. Соатов Б. Ўзбек халқ мақолларининг жанр хусусиятлари ва поэтикаси. – Тошкент: Фан, 1994.
9. Ўзбекистон тарихи. Тўрт томлик. I том. – Тошкент: Ўқитувчи, 1970.
10. Худойберганова Д. Муқимова З. Лингвомаданий кодлар назарияси ва ўзбек халқ мақоллари // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2021. –№4.
11. Куръони азим тафсири. Шайх Алоуддин Мансур. – Тошкент: Ўзбекистон, 2019.
12. O‘zbek folklori / Pedagogik institutlar uchun xrestomatiya. Tuzuvchi: Hodi Zarif. – Toshkent, 1939.
13. To‘xliyev B. Adabiyot. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun. – Toshkent: Oqituvchi, 2003.
14. <https://www.islamonline.uz/index.php/dolzarb-mavzu/item/871-qullik>.